

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Rektor \_\_\_\_\_ Sh.Sirojiddinov

202\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

202\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

Ro‘yxatga olindi: №BD-5120100-2.12

202\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

**JAHON ADABIYOTI**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	120000	– Gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi:	5120100	– Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

**Toshkent – 2020**

<b>Fan/modul kodi</b> 200 3 JA 6 M (bakalavriat)	<b>O'quv yili</b> 2021-2022	<b>Semestr</b> 3	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
<b>Fanning nomi</b>		<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
Jahon adabiyoti		75	105	180
1.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Mazkur fanni o'qitishdan maqsad – jahon adabiyoti namunalarini bir butunlikda, jahoniy poetik tamoyillar asosida o'rganish, milliy adabiyotni boshqa millatlar badiiy tafakkuri bilan mushtarak hodisa sifatida talqin etish, jahon adabiyotining yetuk namoyandalari biografiyasi, adabiy muhiti, poetik mahorati, uslubi, badiiy konsepsiyasi masalalarini o'rganishdan iborat.</p> <p>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– jahon xalqlari adabiyotining badiiy, tarixiy, falsafiy, ruhiy-ma'naviy omillari haqida bilimga;</li> <li>– mif va adabiyot munosabati masalasini o'rganish;</li> <li>– jahon xalqlari madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan adabiy davrlarni o'rganish ko'nikmasiga;</li> <li>– adabiy oqim va yo'nalishlarning shakllanish tarixi, nazariy-estetik asoslari, adabiy-tarixiy jarayonda tutgan o'rni va ahamiyatini yoritib berish;</li> <li>– jahon adabiyoti tadrijida sezilarli iz qoldirgan ijodkorlar biografiyasi, asarlari, adabiy muhiti, uslubi va badiiy mahoratini ilmiy talqin etish;</li> <li>– jahon adabiyotining eng sara namunalari misolida adabiy turlar va janrlar takomili muammolari haqida fikr yuritish malakasiga ega bo'lishi lozim.</li> </ul> <p><b>Fanning vazifasi</b> – talabada jahon adabiyoti bo'yicha badiiy tahlil malakasini shakllantirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– dunyo adabiyotidagi badiiy asarlarning ichki poetik strukturasi, semantik</li> </ul>			

	<p>munosabatlarini anglash ko‘nikmasini hosil qilish;</p> <p>– badiiy adabiyotda ijodkor shaxs, ijodiy individuallik, individual uslub tushunchalarini anglatish.</p>
2.	<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Jahon adabiyoti tarixi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Eng qadimgi davrdan Uyg‘onish adabiyotigacha</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. Mifning badiiy ijodda tutgan o‘rni</b></p> <p>Mifologik maktab: tarixi, vakillari. Aka-uka Grimmlarning “Nemis mifologiyasi” asari. Myuller asarlarida mifologik talqin. Losevning mifologiyaga doir qarashlari. Mif va falsafa, mif va estetika, mif va din. Mif va mif poetikasi jahon adabiyotini o‘rganishning muhim asosi sifatida. Mifda kaos va kosmos tushunchalari, ularning badiiy adabiyot tarkibida bajaradigan vazifasi.</p> <p>Mifning shakllari: tabiat, jamiyat, inson, o‘tmish, kelajak, yaratilishi va inqiroz haqidagi miflar. Mifologik maktab, mohiyati, asoschilari, metodologik prinsiplari. Mifologik asos, mifologik syujet, mifologik unsur tushunchalari. Ayni tushunchalarning adabiy-tarixiy jarayon bilan munosabati. Mifda kaos va kosmos tushunchalari, uning badiiy adabiyot bilan bog‘liqligi. Frezer talqinida mif.</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mavzu. Qadimgi Sharq va Antik adabiyot</b></p> <p>Sharq va G‘arb adabiyotining Antik davri: qiyos masalasi. Davrga xos adabiyotning geografik hududlari, xronologiyasi. Antik davr eposi: “Ramayana”, “Maxabxorat”, “Iliada”, “Odisseya”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Manas” asarlarining mazmuni va poetik o‘ziga xosliklari. Antik lirika janrlari. She‘riy vaznlar masalasi. Antik drama: Esxil, Yevripidlar ijodi. Tragediya, komediya janrlarining antik namunalarini. Tragediyaning rivoiy, madaniy-tarixiy va nazariy asoslari. Antik davr didaktikasi.</p> <p>Sharq va G‘arb didaktikasining umumiy hamda xususiy jihatlari. Didaktik talqinda shaxs, zamon va axloqiy omillarning o‘rni. Gesiodning “Mehnat va kunlar” asari. “Devonu lug‘otit turk” asarida didaktik she‘rlar. Sharq didaktikasining yetakchi tamoyillari.</p> <p style="text-align: center;"><b>3-mavzu. Antik davr dramasi</b></p> <p>Tragik janr. Tragediyaning rivoiy, falsafiy, psixologik va nazariy omillari. Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasida obrazlar tizimi. Edip “gunohi”ning jahon</p>

adabiyotshunosligida talqin etilishi. Asarda tragik vaziyatlarning o'ziga xosligi. Yunon komediyasi: komediya va komizm masalasi. Aristofan komediyalari. Attika davri komediyalari. Menandr ijodi. Sharq xalqlari dramasi: xalq teatrlari, masxarabozlik va jahon dramasi.

#### **4-mavzu. Rim adabiyoti**

Plavt va uning "Xumcha", "Maqtanchoq jangchi" komidiyalarida komik obrazlar talqini. "Xumcha" asari va o'zbek adabiyotida xasis obrazi. "Oltin devor"da komiklik va Plavtning "Xumcha" asari. Progopolinik komik obraz sifatida. Vergiliy ijodi. "Eneida" asarining yaratilishida Avgust siyosatining o'rni. Vergiliyning ijtimoiy qarashlari. "Eneida" asarining Gomer ijodi bilan munosabati. Asarning ijtimoiy mohiyati. "Eneida"da mifologik talqin. Ovidiyning "Qahramon ayollar", "Metamorfozalar" asarlarida real voqelik va mifologik talqin uyg'unligi.

#### **5-mavzu. O'rta asrlar adabiyoti**

O'rta asrlar adabiyoti tushunchasi, uning Sharq va G'arb adabiyotida tutgan o'rni. O'rta asrlar G'arbiyYevropa eposi: "Roland haqida qo'shiq", "Sid haqida qo'shiq", "Nibulunglar haqida qo'shiq" asarlari, ularda Sharq mavzusi talqini. Kelt xalqlari sagalari. Sagalarning yaratilishi: druidlar va flidlar. Sagalar strukturasi, mavzu doirasi. Sagalarda Sharq motivlari. Sagalarning cherkov xodimlari tomonidan yozib olinishi. Sagalarda diniy, xurofiy va magik unsurlar. O'rta asrlar yozma adabiyoti. Lirika va uning mavzu ko'lami. Lirik uslubdagi o'zgarishlar. Kurtuaz lirikasi. O'rta asrlar dramasi, Antik drama bilan umumiy va farqli jihatlari. Bu davr dramasi "Injil" rivoyatlarining o'rni. Sahna talqinidagi o'ziga xosliklar: sahna, dekoratsiya, aktyorlar, makon va zamon masalalari. Liturchik tushunchasi. Misteriyalar. Ritsar romanchiligi. Ritsar romanlarining syujet qurilishi. Ritsar romanlarida sarguzasht va fantaziyaning ahamiyati, ularning folklor asarlari bilan munosabati. Ritsar romanlarida "uchlik" tushunchasi va uning roman syujeti bilan bog'liqligi.

#### **6-mavzu. Jahon xalqlari Uyg'onish adabiyoti**

Geografik, xronologik chegaralari. Falsafiy, estetik, poetik, ijtimoiy, ma'naviy omillari. Sharq va G'arb uyg'onishi muammosi: mushtarak va umumiy jihatlari. Ushbu muammoning jahon adabiyotshunosligida talqin etilishi. Sharq va G'arb Uyg'onish adabiyotining mushtarak va farqli jihatlari.

#### **7-mavzu. Italiyada Uyg'onish davri adabiyoti**

Falsafiy, estetik va ijtimoiy omillar. Falsafiy va ijtimoiy konsepsiyalar: “Gumanizm”, “universal odam”, “Xotin-qizlar ematsipatsiyasi” masalalari. Uygʻonish davri adabiyotining estetik va adabiy kriteriyalari: realistik talqin, obrazlar rototipliligi, peyzaj va h.k.

Dante biografiyasida oʻsha davr Italiya ijtimoiy muhitining oʻrni. Dante ijodining ilk davri. Anʻanaviy lirika. “Yangi hayot” Dante lirikasining yangi bosqichi sifatida. Asarning mazmuni va strukturasi. “Bazm”, “Monarxiya haqida” asarlari. “Xalq tili haqida” Dante estetik qarashlari va filologik nuqtai nazarining inʻikosi sifatida. “Ilohiy komediya” asarining oʻrganilishi masalasi. Asar ilmiy, badiiy, falsafiy asoslarining shakllanishida Sharq badiiy tafakkurining oʻrni. Dante va Bakochcho. Dante va Petrarka ijodi.

### **8-mavzu. Ispaniyada Uygʻonish davri adabiyoti**

Ispan Uygʻonishning milliy va Antik asoslarari. Ispaniya adabiy-ijtimoiy hayotida Oʻrta asrchilik anʻanalari. Bu davr adabiyotida epos, drama va folklorining oʻrni. Migel de Servantesning hayot yoʻli va ijodi. “Don Kixot” jahon adabiyotining yuksak namunasi sifatida. Asarning ijtimoiy, milliy va biografik omillari. Asarning ritsar romanlari bilan munosabati. “Don Kixot”da telba, qiziqchi va ayyor obrazlari. Don Kixot va real voqelik aro nomutanosiblik. Romanning fojiviy qirralari. Roman haqida bildirilgan fikr-mulohazalar.

### **9-mavzu. Fransiyada Uygʻonish davri adabiyoti**

15-16 asrlar Fransiyada ijtimoiy muhit. Falsafiy qarashlar xilma xilligi. Diniy qarashlarda mutaassiblik. Uygʻonish davri fransuz lirikasi, eposi va dramaturgiyasi. Fransua Rable biografiyasi va ijodi. “Gargantuya va Pantgryuel” asari. Asar xususida M.Baxtin tadqiqotlari. Roman talqinida xalq kulgu madaniyatining oʻrni. Asarda kinoya va komillik. Tragik–komik talqin va “Gargantuya va Pantagryuel” asari. Asar strukturasiining poetik mazmunini ochishdagi ahamiyati. Asardagi obrazlar. Asar uslubining oʻziga xosligi. Asar haqida M.Baxtin fikrlari.

### **10-mavzu. Angliyada Uygʻonish davri adabiyoti**

Ijtimoiy, falsafiy va estetik qarashlardagi yanglanishlar. Uygʻonish davriing lirikasi, eposi va dramasi. Adabiy muhit. K.Marlo ijodi. Dramaturgiya va teatrchilik. Globus teatri. Shekspirning hayot yoʻli. Shekspir ijodida lirika. Sonetlari. Dramaturgiyasi. Shekspir drama asarlarini davrlashtirish. Shekspir dramalarida komiklik. Shekspir tragediyalarida qahramon, voqelik, ramzlarning

o'zni. Shekspir tragikomediyalari. "Qirol Lir" damasida masxara obrazi. Asarda "Otalar va bolalar" muammosi talqini. Asar syujetida peyzaj unsurlarining psixologik vazifasi. Tragik obrazlar (Qirol Lir, Edgar) talqinida pozitsiyasi. "Qirol Lir"da "katarsis". Shekspir va Tolstoy, Shekspir va Sharq badiiy tafakkuri. "Gamlet" tragediyasida tragik qahramon talqini.

## **Jahon adabiyotida adabiy oqimlar va metodlar**

### **11-mavzu. 17-asr nemis adabiyoti**

17-asr nemis adabiyotida urush mavzusi talqini. 1618-1648 yillarda bo'lib o'tgan urushning Yevropa xalqlari ma'naviy, ijtimoiy hayotida tutgan o'zni. Ayni voqealarning badiiy adabiyotda aks etishi. Nemis yozuvchisi Martin Opis (1597-1639)ning ijtimoiy-adabiy faoliyati. Uning «Nemis poeziyasi haqida» deb nomlangan kitobida urush izdan chiqargan milliy ma'naviyatni tiklash masalasining aks etishi. Bunda nemis xalqi folkloridan, Antik davr madaniyatidan foydalanish haqidagi fikr-mulohazalar. 17-asr nemis adabiyotida urushni qoralash mavzusi. Paul Felemingning «Yangi, 1633 yilga madhiya» asarida urushning real manzaralari aks etishi. Urush odami muammosining qo'yilishi. Andreas Grifius ijodida urushning ma'naviy inqiroz manbai sifatida talqin etilishi. Grimmelsgauzen (1625-1676)ning «Simplitsius Simplitsissimus» (Soddalar soddasi) satirik romanida urushga kinoyaviy munosabat. Asarda Simplitsius obrazi. Asar badiiyati va uslubi. Nemis dramaturgiyasida urush mavzusi. Kaspar fon Loenshteyn pesalari. Andreas Grifiusning urushga doir tragediyalarida diniy pafosning yetakchiligi. Asarda yalmog'iz, jinlar, arvoq kabi personajlarning badiiy funksiyasi.

### **12-mavzu. 17-asr Ispan adabiyoti**

Bu davr ispan adabiyotida uch adabiy yo'nalish: Uyg'onish realizmi, klassitsizm, barokko. Uyg'onish realizmi va Lopedo Vega ijodi. «Qo'zibuloq» realistik asar sifatida. Asarning syujeti, obrazlari. Veganing estetik qarashlari. Klassitsizm estetikasining inkori, pesa strukturasi haqida mulohazalari. Sonetlari, epik dostolari. Ispan klassitsizm adabiyoti. Bu adabiyotning milliy ruhi va xalq maishiy hayoti bilan birikib ketgani. Barokko oqimi: uning antik asoslari, o'tmish adabiyotini kult darajasiga ko'tarish, adabiyot xoslar uchun g'oyasi. Gongoro ijodi. Konseptizm estetikasi. Alonso Ledisma, Luisde Gevara, Baltasar Grasmanlar ijodi.

### **13-mavzu. Fransuz adabiyoti**

Fransiyada klassitsizm estetikasi va milliy madaniyat konsepsiyasi. Fransuz klassitsizmining falsafiy-estetik asoslari. (Dekart, Per Gasendi, Molerb, Bualo qarashlari). Kornel, Rasin, Molerlar ijodida klassitsizm an'analari. Klassitsizm estetikasining asosiy tamoyillari: uch birlik, adabiy janrlar masalalari. Sharq va G'arb klassitsizmi qiyosi: umumiy va farqli jihatlar.

#### **14-mavzu. Ingliz adabiyoti**

Ingliz ijtimoiy-madaniy hayotida uyg'onish gumanizmi va hayot dialektikasi. F.Bekon, E.Spenser, V.Shekspir estetik qarashlari talqini. B.Jonson, Milton, D.Uinstellilar ijodida «metafizik maktab» an'analari. Idealistik motivlar va ritsarlik an'analari talqini. 1948 yildan keyingi «yangi dvoryanlar» publitsistik prozachiligi (Jon Drayden 1631-1700, Uilyam Uicherli 1642-1716, Jon Benyan-1628-1688, Semyuel Betler 1612-1681, Jon Milton 1608-1674).

#### **15-mavzu. Jonatan Svift va bolalar adabiyoti**

J.Sviftning hayot yo'li. Yozuvchi ijodining yetakchi tamoyillari. Svift ertaknamo hajviy asrlar muallifi sifatida: «Bochka haqida ertak», «Kitoblar jangi» asarlari. «Gulliverning sayohatlari» romani. Asarga hos mubolag'a va fantaziyaning o'ziga xoslili. Gulliver bolalar adabiyoti «vakili» sifatida. Asarning ramziy qatlamlari.

#### **16-mavzu. XVII-XVIII asrlar italyan adabiyoti**

Jambatist Mariko (1569-1625) va «marimiza» oqimi. Italyan adabiyotida badiiy shakl soddaligi yo'lidagi harakatlar. Tarkvato Tassoga qaytish. Fulvio Testi ijodida ijtimoiy mavzu talqini. Vinchenko Filikay (1642-1707)ning diniy she'riyati. Alessandro Tasoni (1565-1635)ning satirik she'rlari: «Turli fikrlar», «Petrarka she'riyati haqida o'ylar», «O'g'irlangan chelak» asarlari. XVIII asr italyan komediyanavisligi. Galdoni (1707-1793), Gossi (1722-1806)lar ijodi.

#### **17-mavzu. XVIII asr Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti**

Nemis ma'rifatchiligi. Milliy birlik g'oyasi. I.Kantning «Erkin tafakkur» falsafasi. Fixtning subektiv idealizmi. Gegl falsafasi. Uning «Ruxfene menologiyasi» va «Mantiq ilmi» asarlari. Nemis klassik falsafasining asosi sifatida, Nemis ma'rifatparvar adiblari: Xristof Goshed (1700-1766), Fridrix Gotlib Klobshok (1724-1803), Vinkelman (1717-1768), Lesing (1729-1781).

#### **18-mavzu. Fransuz ma'rifatchiligi**

Nazariy-estetik asoslari: Mentsening «Did», Volterning «Didsaroyi», Didroning

«aktyor haqida paradoks» asarlari. Adabiyotda ijobiy qahramon, ijtimoiy tarbiya, milliy madniyat masalalari. Teatrchilik harakatlari: Volter, Didro, Merse, Bomarshelar komediyalari.

### **19-mavzu. XVII asr fransuz adabiyotida ertak va masal janrlari (Jan Lafonten).**

Lafonten hayoti va ijodining yetakchi xususiyatlari. Yunon mifologiyasining yangicha talqini: «Adonis» poemasi. Lafonten ijodida ertak janri. «Ertaklar» kitobining mazmuni va mundariyasi. Asarning bolalar adabiyoti bilan munosabati. Lafonten masallari. «O‘tinchi va o‘lim», «Dub va qamish», «Kasal arslon va tulki», «Bo‘ri bilan qo‘zichoq» masallari. Ularning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati va ibratli jihatlari.

### **20-mavzu. Yevropa sentimentalizmi estetikasi**

David Gartli, J.J.Russo, Jorj Bekrli, David Yumlarning falsafiy qarashlari. Sentimental estetikaning o‘ziga xos jihatlari. E.Yung, J.Tomson, L.Sternlar ijodi. Gyotening «YoshVerterning iztiroblari» asarida sentimental falsafa talqini.

XVIII asrning 70-80-yillaridagi «Bo‘ron va tazyiq» harakati va F.Shiller ijodi. Harakatning ijtimoiy tabiati. Klengerning «Bo‘ron va tazyiq» pesasi shtyurmerlik harakatining asosi sifatida. Ijtimoiy va hissiy erkinlik masalasi. Shillerning «Qaroqchilar», Byurgerning «Lenora», Gyotening «Korinflik kelinchak» asarlarida shtyurmerlik g‘oyalari talqini. Shillerning falsafiy va nazariy estetik qarashlari. «Makr va muhabbat», «Don Karlos», «Vallenshteyn» asarlari. Shtyurmerlik harakatida xalqchilik g‘oyasi.

### **21-mavzu. XIX asr nemis va ingliz romantizmi**

Yevropa romantizmining ikki ko‘rinishi: idealistik va taraqqiyparvar romantizm. Ularning ijodida xalq va milliy birlik tamoyili. Klassitsizmga salbiy munosabat, nemis romantizmi: A.Shamiso, A.Gofman, aka-ukalar Grimlar. Ingliz romantizmi: Bayron ijodi. Nemis romantizimida: «Ko‘l maktabi» (Vordsvord, Sadi, Kolrij), inqilobiy romantizm (Bayron, Shelli), «London romantiklari» oqimlari. Amerika tarixiy romanchiligi. Fenemor Kuper ijodi romantizm va realizm sintezi.

### **22-mavzu Yevropa tanqidiy realizmi**

P. Beranje, Stendal, P. Marime, Balzak va Charlz Dikkenslar ijodida jamiyat va shaxs muammolarining badiiy talqini. XX asr birinchi yarmi Yevropa va AQSh



tanqidiy realizm adabiyoti. Gi de Mopassan tanqidiy realizmi. Nemis adiblari Tomas Mann, Bernard Shoular ijodida realistik talqin tamoyillari. AQSh adabiyotida satira va yumor. Mark Tven ijodi. Jek London ijodida Spanser va Nisshe falsafasi talqini. R.Rollan (Fransiya), Lui Aragon (Fransiya), E.Xenimguey, T.Drayzer, (AQSh), Anna Ziggers (Germaniya), Jeyms Oldrij (Angilya)lar ijodida ijtimoiy falsafiy, maishiy muammolarning yoritilishi.

### **23-mavzu Realizm estetikasi va naturalizm**

Ijtimoiy-falsafiy asoslari. Fransuz realistik adabiyoti. P.Elyuar, M.Riffo, P.Shobbarlar ijodida «fojeiy gumanizm» motivlari. 50-yillar ispan adabiyotida «tremendizm» yo‘nalishi: K.Seli, K.Laforetijodi. Ispan «Yangi romanchiligi»: X.Goytsolo, A.Matutelar ijodi. Naturalizm estetikasi asosida Ogyust Kont va Ippolit Ten falsafiy qarashlari yotishi. Shaxs faoliyatida biologik, genetik omillarning ustun qo‘yilishi. Naturalistik badiiy tasvirning o‘ziga xosliklari. Naturalistik adabiyot vakillari: aka-uka Gonkurlar, Emil Zolyalar ijodi.

### **24-mavzu XX asr Amerika adabiyotida bolalar obrazi (Mark Tven ijodi).**

Mark Tven hayoti va ijodiy yo‘li. Yozuvchi hikoya va ocherklarida xalq ijodiyoti unsurlari. M. Tven tarixiy romanlar muallifi sifatida. «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» romani. Roman bosh qahramoni Tom, uning sarguzashtlari. Tomga xos xarakter xususiyatlari. Asardagi boshqa bolalar obrazlari.Yozuvchining «Gekl'berri Finning boshidan kechirganlari» romani. Asarning bolalar avantyurasi asosiga qurilganligi. Gek Finn obrazining o‘ziga xosligi. Romandagi ijtimoiy tanqid motivi.

### **25-mavzu Jahon modernizm adabiyoti**

Modernizm estetikaning tarixiy ildizlari va ijtimoiy-falsafiy omillari. Jahon modernizmining adabiy, falsafiy yo‘nalishlari: simvolizm, futurizm, dadaizm, syurrealizm, abstraksionizm, ekzistensializm, absurdizm. Fransuz modernizmi. Inson hayotining ekzistensial talqin etilishi. J.P. Sartr, A.Kamyu, S. De Bouvarlar ijodi. 50-yillar fransuz «yangi romani»: A.Rob-Griye, N.Sorrot, M.Byutor asarlari. Fransuz «absurd teatri»: E.Ionesko, S.Bekket, A.Adamovlar ijodi. 60-80-yillar ispan profonkist romanlari: B.Kassaesa, X.Goytsolo, A.Mushetilar ijodi. Ayres Merdok, Uilyam Goldinglaring ingliz modern adabiyoti namoyondalari sifatida. Nemis modern adabiyotida metafizik falsafa asosida maydonga kelgan «meta adabiyot» (Ernst Yunger, Arno Shmid), fransuz modernizmi (Martin Valzer),

frejdizm qarashlarning badiiy talqinlari (S.Sveyg). AQSh modern adabiyoti: ekzistensializm, freydezm, dzen-buddizm g'oyalari: U.Stoyron, R.Elisson, D.Selenjer, U.Folknerlar ijodi.

### **26-mavzu. XX asr Lotin Amerikasi adabiyoti**

XX asr ikkinchi yarmidan keyingi davr adiblari ijodida milliy ozodlik mavzusi: Pablo Neruda, Gabriel Markes, Xorxe Borxes, Karlos Fuentes, Xuan Rulfo. Markesning «Tanholikning yuz yili», «Oshkora qotillik qissasi» asarlarida milliy va umuminsoniy g'oyalar talqini.

3.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar talabalarda badiiy tahlil, ilmiy-nazariy muqoyasa, badiiy asarga problematik yondashuv malakasini shallantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar olib borish, tarixiy davrlar mohiyati, poetik o'ziga xosligini anglashda amaliy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar jahon adabiyoti muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

#### **Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. “Qadim Gresiyaning afsona va miflari”, “Hind miflari” asarlari tahlili.
2. Antik davr Sharq va G'arb eposlari qiyosi.
3. “Zanjirband Prometey” asarida mifologiyaning o'rni.
4. O'rta asrlar Yevropa xalqlari eposi.
5. Kelt xalqlari epik ijodi: bardlar va flidlar tomonidan ijod etilgan sagalar.
6. Turbadur va Kurtuaz she'riyati.
7. O'rta asr dramasi syujetlari va «Injil» rivoyatlari.
8. Uyg'onish davrining falsafiy, tarixiy va badiiy omillari.
9. Dantening “Ilohiy komediya” asarining strukturasi va obrazlar tizimi.
10. Servantesning «DonKixot» asarida an'ana va yangilik
11. Shekspir tragediyalarida shaxs masalasi
12. Fransua Rable va Fransuz folklori
13. D.Defoning “RobinzonKruzo” romanida ma'rifat g'oyasi.
14. “Gulliverning sayohatlari” romanida J.Svift fantastikasining realistik negizi.

15. F.Shillerning “Qaroqchilar” tragediyasida erksevarlik g‘oyalarining ilgari surilishi.
16. Gyote “Faust” asarining asosiy g‘oyasi.
17. Bayron ijodida ramntizimning o‘rni.
18. Stendalning “Qizil va qora” romanida ijobiy qahramon muammosi.
19. Balzak asarlarida umuminsoniy qadriyatlar.
20. “Bovarixonim” romanida ijtimoiy-siyosiy va estetik xomxayollikning fosh etilishi.
21. Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romani realistik asar sifatida.
22. F.Dostoevskiyning “Jinoyat va Jazo” romanida psixologizm.
23. E.Zoyaning “Hamal” romanida mehnat va manfaat masalasi.
24. Mopassan hikoyalarida psixologik tahlilning chuqurligi.

### **3.2. Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg‘ulotlari talabalarni hozirgi adabiy jarayonga oid ma’lumotlar bilan mustaqil tanishishga, adabiy jarayondagi lirik, epik, dramatik asarlarni tahlil va talqin etishga yo‘naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog‘ida munozara yoki ma’ruza shaklida himoya qiladi. Seminar mashg‘ulotlarida talabalar hozirgi adabiy jarayonning bir qator ilmiy muammolari to‘g‘risida amaliy ko‘nikma va malaka hosil qiladilar.

#### **Seminar mashg‘ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. «Qadim Gretsiyaning afsona va miflari», «Hind miflari» asarlari tahlili.
2. Gomerning «Ilida» va «Odiseya» asarlarida mifologik syujetlarning o‘rni.
3. Bualoning «Poetik san’at» asari.
4. E.Xeminguey ijodida inson irodasi kuchining tasvirlanishi (“Alvido, qurol” va “Chol va dengiz” asarlari asosida).
5. U.Folknerning “Qora musiqa” asarida tragikpafos.
6. A.Kamyu va absurd adabiyot muammosi. F.Kafka ijodida “Absurd makon” muammosi.

4.

#### **IV. Mustaqil ta’lim**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda,

quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik;
- Seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik;
- Darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Talabani o‘quv, ilmiy-tadqiqotishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- Faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- Masofaviy ta’lim.

**Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:**

1. Gomerning “Iliada” va “Odissey” asarlarida mifologik syujetlarning o‘rni. (Qadim dunyo mifologiyasi kitobi asosida.-M., 1987).
2. “Shoh Edip”da tragizm muammosi. Shu kitob asosida yozma ish tayyorlash.
3. “Shohnoma”da Zakhok obrazi:mifologik, diniy, badiiy talqin sintezi sifatida. Firdavsiy “Shohnomasi” va mifologiyaga doir ilmiy adabiyotlardan foydalanish.
4. Kelt xalqlari sagarlarida sharqona syujetlar. Etik va estetik qatlamlarini muqoyasa qilish.
5. Dante ijodiga sharq badiiy-falsafiy tafakkurining ta’siri. “Ilohiy komediya” asari asosida.
6. F.Rable va folklor munosabati masalasi. M.Baxtin qarashlari asosida.
7. Shekspirning “Qirol Lir” asarida masxara obrazi.S.Melievning “Hazillashmang daho bilan”(“O‘zAS”, 2002, iyun) maqolasi asosida.
8. Kristofer Marlning «Buyuk Temur” asari.“Buyuk Temur” asari tahlili misolida.
9. D.Defoning “Robinzon Kruzo” romani badiiyati. Asarni o‘qib tahlil qilish.

10. “Gulliverning sayohatlari” romanida giperbolaning o’rni. Shu kitob asosida yozma ish tayyorlash.
11. F.Shillerning “Qaroqchilar” tragediyasida tragik obrazlar. Kitob voqealari asosida test tuzish.
12. Gyote “Faust” asarida umuminsoniy g‘oyalar. E.Vohidov tarjimasida o‘qish va tushunish.
13. Bayron ijodida ramntik oboazlar. She’rlarini yod olish, tahlil qilish.
14. Stendalning “Qizil va qora” romanida J.Sorel obrazi. Romanni o‘qish.
15. Balzak asarlarida umuminsoniy suammolar talqini. “Gorio ota” asari asosida. “Gorio ota” asari asosida.
16. F.Dostoevksiyning “Jinoyat va Jazo” romanida inson tabiati talqini. Asar ustida ishlash, mustaqil ish tayyorlash.
17. E.Xeminguey ijodida inson va borliq muammosi talqini. “Chol va dengiz” asari tahlili.
18. F.Kafkaning “Begona” asaridaekzistensializmtalqini.
19. J.P.Sartrning “Ekzistensializm to‘g‘risida” nomli maqalasi asosida(“Jahon adabiyoti jurnali”, 1997).

5. **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

“Jahon adabiyoti” fani dasturi Davlat ta’lim standartlari, namunaviy dasturlarga qo‘yiladigan ilmiy-metodik talablar asosida shakllantirilgan. “Jahon adabiyoti” fani bo‘yicha bakalavr talabada jahon adabiyoti bo‘yicha badiiy tahlil malakasini shakllanadi, dunyo adabiyotidagi badiiy asarlarning ichki poetik strukturasi, semantik munosabatlarini anglash ko‘nikmasini hosil qilish **haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.**

Ushbu fan yuzasidan bakalavr hozirgi adabiy jarayonga oid ma’lumotlar bilan mustaqil tanishishga, adabiy jarayondagi lirik, epik, dramatik asarlarni tahlil va talqin etishga yo‘naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog‘ida munozara yoki ma’ruza shaklida himoya qiladi. Seminar mashg‘ulotlarida talabalar hozirgi

	<p>adabiy jarayonning bir qator ilmiy muammolari to‘g‘risida amaliy ko‘nikmani <b><i>bilishi va ulardan foydalana olishi lozim.</i></b></p> <p>“Jahon adabiyoti” fanidan talaba adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnni asl manbasi bilan solishtira bilish, asar syujetini tarkibiy qismlarga ajratish, matndagi muallif va qahramon nutqini farqlash, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish <b><i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.</i></b></p>
6.	<p><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirishda o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.</p> <p>Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar mashg‘ulotlari shaklida olib boriladi.</p> <p>Shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta’lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi.</p> <p>Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi.</p> <p>Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilg‘or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi.</p>
7.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
8.	<p><b>Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Артаманов С.Д., идр. История зарубежной литературы XVII-XVIII в.в. –М., 1989.</li> <li>2. Зарубежная литература XIX века. – М., 1989.</li> <li>3. Зарубежная литература XX века. – М., 2000.</li> <li>4. История зарубежной литературы: Сред. века, Возрождение. – М., 1988.</li> </ol>

5. Тронский И.М. История античной литературы. – М.:Высшая школа, 1983.
6. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. – T.:Barkamol fayz media, 2017.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Аристотель. Поэтика.-Т.,1980.
2. Афансев А.Н. Деревожизни.-М., 1982.
3. Голосовкер Я.Логикамифа.-М.,1987.
4. Жўракулов У.Худудсизжилва.-Т., 2006.
5. Жўракулов У. Назарийпоэтикамасалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т., 2015.
6. История эстетики: Памятники мировой эстетической мысли. Впяты томах.-М., 1964-1970.
7. Конфуцианство в Китае.-М., 1982.
8. Мифы древней Индии.-М., 1975.
9. Рифтин Б.Л. От мифа к роману. -М., 1979.
- 10.Мелетинский Е.М. Поэтика мифа.-М.,1976.
- 11.Мифологии древнего мира.-М., 1977.
- 12.Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб.-Т.,1997.
- 13.Қуроноу Д., Раҳмоноу Б. Ғарб адабий-танқидий тафакқури тарихи очерклари.-Т., 2008.

### **Internet saytlari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [www.o‘zbekadabiyoti.com](http://www.o‘zbekadabiyoti.com).
4. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
5. [www. Lib.ru](http://www.Lib.ru).
6. [www.litera.ru](http://www.litera.ru).
7. [www.Philologs.narod.ru](http://www.Philologs.narod.ru).

- |    |   |
|----|---|
| 9. | Fan dasturi Oliy va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202__ yil |
|----|---|

	<p>“ _____ ” _____ dagi _____ -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 202__ yil “ _____ ” _____ dagi _____ - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.</p>
10.	<p><b>Fan/modul uchun mas’ullar:</b></p> <p><b>U.Jo‘raqulov</b> – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon” kafedrasida professor, filologiya fanlari doktori.</p> <p><b>K.Hamrayev</b> – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon” kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.</p> <p><b>R.To‘laboyeva</b> – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon” kafedrasida o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.</p>
11.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>I.Yoqubov</b> – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori (turdosh OTM)</p> <p><b>D.Yusupova</b> – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyoti tarixi va folklor” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori.</p>